



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-fevral

61-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2025-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 29-yanvardagi 46-son qarori ijrosi haqida”gi 51-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 29-yanvardagi 46-son hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 51-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 29-yanvardagi 46-son qarori ijrosi haqida”gi 51-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 46-sonli qarori bilan:

Belgilanishicha:

asosiy parametrlar doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar 2025-yilda Davlat budjetidan O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirishi;

asosiy parametrlarga muvofiq, qisqa muddatli o‘quv kurslarini tamomlagan xotin-qizlarning bandligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 3-maydagi PF-72-son Farmoniga muvofiq, ustuvor ravishda 105 ming gektar yer maydonida yangi tutzorlar barpo etish va dala chetlarida yangi tut ko‘chatlari ekish hisobiga hamda pillachilik klasterlari, ipak qurti urug‘chiligi korxonalari, pillachilik va tutchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklariga mavsumiy hamda doimiy ishlarga qabul qilish orqali ta‘minlashi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda Xitoy, Vetnam, Hindiston va Yaponiya davlatlaridan

ipakchilik sohasidagi mutaxassislarni xotin-qizlarning pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslariga jalb qilish choralarini ko'rishi;

Bunda chet ellik mutaxassislarning bevosita yoki videokonferensaloqa orqali ishtiroki ta'minlashi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitish va ularni sohaga jalb qilishning asosiy parametrlari (keyingi o'rinlarda - asosiy parametrlar) 1-ilovaga muvofiq;

Xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitish va ularning sohada bandligini bosqichma-bosqich ta'minlash tizimini tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanlanganligi;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi (A.Gaffarov)ga tumanlar hokimliklari bilan birgalikda xotin-qizlarning pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil qilish uchun 3-ilovaga muvofiq binolardan vaqtinchalik joy ajratish choralarini ko'rsish topshirilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), "Agropilla" MCHJ (A.Bozorov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda pillachilik sohasida band bo'lgan fuqarolarning ma'lumotlari "yangiish.mehnat.uz" platformasiga kiritib borilishini; asosiy parametrlarga muvofiq pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarini tamomlagan xotin-qizlarning doimiy va mavsumiy ishlarga qabul qilinganligi hisobini "yangiish.mehnat.uz" platformasi orqali yuritilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar boshlig'i boshlig'i v.v.b (Y.Mamitaliyeva), Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), "Agropilla" MCHJ (A.Bozorov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 46-son qarori ijrosi talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i I.Ergashev hamda tuman hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i v.v.b Y.Mamitaliyeva zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov